

## TASDIQLAYMAN

“O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat  
nazorati markazi” DM (“UzTest” DM)  
direktori, Ilmiy Kengash raisi

J. Kattaxodjaye

2025 y.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” (“UzTest”) davlat muassasasi Ilmiy Kengashining 8-son qaroridan

## KO‘CHIRMA

**Raislik qildi:** “UzTest” DM direktor o‘rinbosari – F.Madumarov.

**Qatnashdilar:** Ilmiy-texnik kengash raisi J. Kattaxodjaye, kengash a‘zosi (PhD) E.Xojiyev, (PhD) X.Qodirova, (PhD) A.Ibragimov, (PhD) N.Akbarova, t.f.d., dot. X.Mahmudov, ilmiy kotib (PhD) D.Kuvatov, hamda ilmiy texnik kengashga taklif etilganlar.

### **Kun tartibi:**

1. Turli masalalar

### **Eshitildi:**

Kengash kotibi (Ph.D) D.Kuvatovning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizom asosida mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga qabul qilish bo‘yicha o‘tkazilgan suhbat bayonnomasi, mustaqil tadqiqotchilarning dissertatsiya mavzulari va ularning ilmiy raxbar, ilmiy maslaxatchilarini tasdiqlash, hamda ilmiy rahbar mehnatiga haq to‘lash masalasini Kengash yig‘ilishida ko‘rib chiqishga ruxsat berilishini so‘rab yozgan bildirishnomasining muhokamasi.

- bildirishnomaga mustaqil izlanuvchilarning ro‘yxati ilova qilingan (1-ilova).

Rais F.Madumarov - Ushbu masala yuzasidan savollar va takliflar bormi? Agar bo‘lmasa, tasdiqlansin degan taklif tushmoqda. Tasdiqlash yuzasidan qarshilar - yo‘q, betaraflar - yo‘q, raxmat tasdiqlandi.

### **Qaror qabul qilindi:**

1. Markaz bosh Ilmiy hodimi - kengash kotibi D.Kuvatovning bildirishnomasida ko‘rsatilgan masala bo‘yicha bergan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2025-yil 27-avgustda o‘tkazilgan mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga qabul qilish bo‘yicha o‘tkazilgan suhbat natijalari, dissertatsiya mavzulari va ularning

ilmiy raxbarlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Shuningdek, ularning har olti oylik va yillik xisobotlarini atroflicha muhokama etib borish ta'minlansin (Mas'ullar: F.Madumarov, D.Kuvatov, ilmiy kengash a'zolari).

3. Ilmiy rahbarlarga mustaqil izlanuvchilar bilan olib boradigan ishi uchun qonunchilikda belgilangan tartibda haq to'lanishi ta'minlansin (Mas'ullar: direktor o'rinbosari - F.Madumarov, Moliya - iqtisodiyot va rejalashtirish bo'limi - D.Jumanov va Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi - B.Alimbayev).

4. Mustaqil izlanuvchilar tomonidan ilmiy rahbar bilan kelishgan holda yakka tartibdagi rejalarini bir oy muddatda Ilmiy kengashga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun taqdim etishda amaliy yordam berilsin (Mas'ul: Markaz Bosh ilmiy hodimi - D.Kuvatov).

5. Mustaqil izlanuvchining yakka tartibdagi rejasi Ilmiy kengash tomonidan tasdiqlanganidan so'ng Yagona elektron tizimga yuklanishi ta'minlansin (Mas'ul: Markaz Bosh ilmiy hodimi - D.Kuvatov).

**Ilmiy Kengash kotibi**



**D. Kuvatov**

**“UzTest” DM doktoranturasiga mustaqil tadqiqotchilikka (PhD) qabul qilinganlarning ilmiy mavzulari va ilmiy rahbarlarini tasdiqlash bo‘yicha ma’lumot**

<b>№</b>	<b>F.I.Sh.</b>	<b>Ixtisosligi</b>	<b>Ilmiy rahbar yoki maslahatchi</b>	<b>Mavzu</b>
1	Xayridinov Muzaffar Xamidovich	05.03.01 – Asboblar. O‘lchash va nazorat qilish usullari (tarmoqlar bo‘yicha)	PhD, dot. Xabibullayev Saidaziz Shoxsuvorovich	Angren konining ko‘miri asosidagi kompozit yoqilg‘i briketlari: sifat ko‘rsatkichlarini baholash va aniqlash usullari
2	Siyayeva Sevvara Furkatovna	05.03.01 – Asboblar. O‘lchash va nazorat qilish usullari (tarmoqlar bo‘yicha)	t.f.d., prof. Rahmanov Anvarjon Tojiboyevich	Разработка фото-электрического преобразователя линейных перемещений и изучение его метрологических характеристик

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” (“UzTest”) davlat muassasasi mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga qabul qilish bo‘yicha o‘tkazilgan suhbat  
BAYONNOMASI**

Toshkent shahar

“27” avgust 2025-yil

**Qatnashdilar:** 13 nafar tanlov hay’ati a’zolari va rahbarlari

**KUN TARTIBI**

“UzTest” DM da yuqori malakali ilmiy kadrlarni tayyorlash maqsadida soha vakillari va olimlar orasidan eng iqtidorlilarini 2025-yil 4-chorak uchun mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga qabul tanlovini suhbat orqali o‘tkazish to‘g‘risida.

**Eshitildi:** Tanlov hay’ati rais muovini, “UzTest” DM direktor o‘rinbosari F.T.Madumarov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy ta’limdan keying ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qaroriga muvofiq “UzTest” DM ga 2025-yil 4-chorak uchun mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga talabgorlarni qabul qilish uchun tasdiqlangan komissiya a’zolarining o‘tkazilgan suhbat natijalari bo‘yicha xulosasi bilan tanishtirdi hamda ushbu xulosani tasdiqlash zarurligini aytib o‘tdi.

Qabul komissiyasi xulosasi bo‘yicha mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga talabgorlarning suhbat natijalari quyidagicha:

**05.03.01 – Asboblar. O‘lchash va nazorat qilish usullari (tarmoqlar bo‘yicha) ixtisosligi bo‘yicha – 2 ta ariza.**

1. Xayridinov Muzaffar Xamidovichning ilmiy maqola va tezislar soni 3 ta, ilmiy rahbar PhD, dot. Xabibullayev Saidaziz Shoxsuvarovich.

2. Siyayeva Sevara Furkatovnaning ilmiy maqola va tezislar soni 3 ta, ilmiy rahbar t.f.d., prof. Raxmanov Anvarjon Tojiboyevich.

Xayridinov Muzaffar Xamidovich va Siyayeva Sevara Furkatovna o‘tkazilgan suhbat natijasiga ko‘ra mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga **tavsiya etilsin.**

**Qaror qilindi:**

1. 05.03.01 – Asboblar. O‘lchash va nazorat qilish usullari (tarmoqlar bo‘yicha) ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olishga tavsiya etilgan talabgorlar tayanch doktorantura (PhD)ga mustaqil izlanuvchilikga qabul qilinsin.

2. Ushbu qarorni tasdiqlash uchun “UzTest” DM Ilmiy Kengashiga taqdim etilsin.

**Tanlov hay’ati rais muovini**

**Tanlov hay’ati kotibi**

**F.T.Madumarov**

**D.G.Kuvatov**